
Rishton tumanining statistika ko'rsatkichlari

Farg'ona viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotiga ko'ra, 2022 yil yakuniga ko'ra, Rishton tumanida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida 92 ta sanoat korxonalari ro'yxatdan o'tgan bo'lib ulardan 81 tasi faoliyat ko'rsatmoqda va 23 ta korxonona yangi tashkil etildi. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmi 2 483,2 mlrd. so'mni yoki 2021 yilning mos davriga nisbatan 102,1 %ni tashkil etdi. 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida dehqonchilik mahsulotlaridan 74 626,6 tonna don, 152 733,5 tonna sabzavot, 16 242,5 tonna kartoshka, 12 423,1 tonna poliz, 30 091,6 tonna meva, 4 983,1 tonna uzum, chorvachilik mahsulotlaridan tirik vaznda 9 775,6 tonna go'sht, 64 271,8 tonna sut, 22 777,2 ming dona tuxum, 347,3 tonna baliq ovlangan, 65 242 ta bosh yirik shoxli qoramol, sigirlarning umumiy bosh soni 23 079 mingtaga, qo'y va echkilarning umumiy bosh soni 53 744 mingtaga, otlarning umumiy bosh soni 387 taga, parrandalarning umumiy bosh soni esa 350 520 taga yetdi. Bundan tashqari, Rishton tumanida 2023 yil 1 yanvar holatiga doimiy aholi soni 212283 kishini tashkil etib, 2021 yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,9 %ni tashkil etdi. Jumladan, shahar aholisi soni 135600 kishini, qishloq aholisi soni esa 76683 kishini tashkil etdi. Shu bilan birga jami aholining 107956 kishi erkaklarni, 104327 kishini ayollar tashkil etmoqda. Bundan tashqari jami viloyatda tug'ilganlar soni 5056 kishi, o'lganlar soni 900 kishi, nikohlar soni 1966 kishi, nikohdan ajrimlar soni 346 birlik, tumanga ko'chib kelgan soni 207 kishi, ko'chib ketganlar soni 441 kishini tashkil etdi. Rishton tumanida 2023 yil 1 yanvar holatiga 1 kvadrat kilometrda o'rtacha 691,5 kishi to'g'ri kelgan.

O'ktamjon Teshaboev,
Rishton tumani statistika bo'limi boshlig'i.

2023-02-02 08:57:16